

2023-yil 28-sentabr

"O'ZKIMYOSANOAT" AJDA "XON ATLAS" FESTIVALI



Ma'lumki, Oila va xotin-qizlar qo'mitasi tomonidan respublikamizda milliy libosimizda xalqimiz urf-odatlarini, didi, estetik qarashlarini, shuningdek, o'ziga xos xususiyatlarini mujassamligini namoyon etish maqsadida "Xon atlas" festivali o'tkazilmoqda.



"O'z kimyo sanoat" AJ ning lohar xotin-qizlari ham bugun ishga rasmiy va odatiy kiyimda emas, balki milliy adras va atlas matolarimizdan tikilgan liboslarda kelishdi.



Ma'lumot o'rnida, o'zbek milliy shoyi matolari - atlas va adrasni tayyorlash texnologiyasi YUNESKO Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish bo'yicha ilg'or tajriba ro'yxatiga kiritilgan.





source:

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkimyosanoat-ajda-xon-atlas-festivali>